

MUHAMMAD G'AZZOLIYNING HAYOTI, FAOLIYATI VA IJODIY MEROSI

Ernazarov Rashid Xudaynazarovich

*Osiyo xalqaro universiteti**Pedagogika va psixologiya -ta'lim yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abuhamid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy Tusining hayot faoliyati, uning o'rgangan ilmiy yo'nalishlari, kamoloti borasidagi ayrim ilmiy nazariy mushohadalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Muhammad G'azzoliy, taxallus (laqab), Kimyoi saodat, so'fiylik, fiqh shafii ilmi, hadis.*

Аннотация: *В данной статье изложены некоторые научные теоретические наблюдения о жизнедеятельности Абу Мухаммада ибн Мухаммада Газали Туси, о научных направлениях, в которых он учился, о его зрелости.*

Ключевые слова: *Мухаммад Газали, Ник (прозвище), химия Садат, суфизм, наука фикха Шафии, хадис.*

Annotation: *In this article presents some scientific theoretical observations about the life of Abu Muhammad ibn Muhammad Ghazali Tusi, about the scientific directions in which he studied, about his maturity.*

Keywords: *Muhammad Ghazali, Nickname (nickname), Sadat chemistry, Sufism, science of fiqh Shafi'i, hadith.*

Muhammad G'azzoliy 450/1058 yillarda Tus provinsiyasining Tabiran qishlog'ida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan unchalik ta'minlamagan, biroq fazilatli, so'fiylik tamoyillariga rioya qiladigan Muhammad ibn Muhammad Tusi oilasida tavallud topgan. Xurosonda bu davrda ota-onalar farzandlariga o'zlarining intilishlari orzu maqsadlarini ifodalovchi taxallus (laqab) larni tanlaydilar, bunga sabab Xurosonning ba'zi joylarida insonlar oilaviy kasbga ko'ra chaqirilgan, masalan, chodir tikuvchi (Xayyom) - Xayyom, paxta ip sotuvchisi (G'azzol) - g'azzoliy, parfyumer (attar) - Attari, bu nomlanishlar hunarmandchilikni hurmat qilish ramzi hisoblangan. Shu tufayli, A. Shamolov va boshqa tadqiqotchilarning asarlariga ko'ra, g'azzoliy taxallusi G'azzoliyning otasi shug'ullanadigan kasbidan kelib chiqqan deb e'tirof etganlar[2;78], [3;26], [1;210], Ba'zi antologiya mualliflari esa G'azzoliy taxallusi Tusa yaqinidagi G'azzoliy kichik qishlog'i nomidan olingan deb hisoblagan fikrni noto'g'ri deb izohlashgan[3;26]. Bundan tashqari, ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, Tus atrofida bunday qishloq mavjud bo'lmaganligiga oid qarashlar mavjud[1;210]. Imom G'azzoliy ismi va taxallusi haqida mulohaza yuritar ekanmiz, "Baxt eliksiri" ya'ni (Kimyoi saodat) asarining muallifi Sayyid Husayn xidi-yujam bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi - Muhammad G'azzoliy: "Xo'jdjat-ul-Islom Abuhamid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy Tusi". Uning to'liq ismi shunday eshitiladi deya e'tirof etgan[4; 2].

Imom G'azzoliyning otasi G'azzoliy Tusi, ta'lim borasida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan va bundan juda afsuslangan, shu tufayli farzandlarining o'qib izlanishiga ma'rifatli bo'lishiga intilib kelgan. Farzandlarining ongi va shuurida ilm-ziyo uyg'otishga astoydil harakat qiladi, bu esa o'z samarasini bera boshlaydi. Biroq, u bolalarining kamolini ko'rishga

ulgurmasdan, bu foniyl dunyoni tark etadi. Vafotidan oldin u so'fiylikni o'ziga kasb qilgan do'stalaridan biriga o'z hamyonida mavjud bo'lgan ozgina pul bilan qo'llariga uzatgan holda bolalariga g'amxo'rlik qilishini ularning savodli bo'lishini juda xohlashini va hamma mablag'larni shu yo'lda sarflashini iltimos qiladi[1;3].

Muhammad Tusi vafotidan keyin, bu inson bolalarga bo'lgan barcha g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olgan holda ularni maktabga yuboradi, ularni avval Qur'on, keyin yozish va matematikani o'qishni o'rgatish yo'lida o'rni kelsa jazolab bo'lsa ham ilm olishga undaydi. O'sha davrdagi Tusa madrasasi, garchi u jurjan va Nishapur madrasalari singari ulug'lanmagan va mashhur bo'lmagan bo'lsa-da, baribir munosib ta'lim bergan. Asosiysi, o'qish uchun pul haqida o'ylashning hojati yo'q edi. Tusa G'azzoliy madrasasida taniqli huquqshunos Abuali Radkanining shogirdi bo'lib, undan fiqh shafei ilmini o'rgangan. Bundan tashqari, grammatika, leksikografiya, hadis va Qur'on ilmlarini o'rgangan.

Bundan tashqari Muhammad G'azzoliy Imom Al-haramayga shogirdlik qilgan, Imom Al-haramaynning mashg'ulotlari faqat shofeit huquqi bilan cheklanmagan va ko'plab bilim sohalari qamrab olgan, G'azzoliy oldida boshqa dunyo eshiklarini ochgan. Yosh G'azzoliy, o'z davrining taniqli shaxslari Kiyoi Xarosi, Abdul Muzaffar Xavofi, Abdul Muzaffar Abivardi va Abulqosim hakimi singari, o'qituvchining e'tiborini jalb qildi va kunu tun demasdan, kunning istalgan vaqtini fanlarni o'rganish yoki foydali ilmiy bahslarga sarflaydi.

Xulosa o'rniida shuni a'lohida ta'kidlash lozimki Imom G'azzoliy nafaqat o'z zamonasining balki, barcha ilm ahlining butun bir kelajak avlodning ilm - ziyo xazinasiga aylandi. Uning ilmiy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyotiga yangi ilmiy urfonlarni hadya etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Абулхусайн Зарринкуб. Бегство из медресе [Текст]. - Тегеран. - 1369 х. - На пер.яз.
- 2.Шамолов А.А. Философско-теологиические воззрения Газали [Текст]: Автореф. дис. ... д-ра филос. наук - Душанбе, 2003. - 46 с.
- 3.Мирзоаде Х. История таджикской литературы [Текст]. - Душанбе, 1989. - На тадж. яз.
4. Газали. Эликсир счастья [Текст] / При помощи Хусейна Хидиюджама.- Тегеран, 1375 х. - Т.1. - 552 с. - На перс. яз.